

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUGGESTIV NUTQIY AKTINING TURLARI VA ULARNING IFODALANISHI

Majidova Zulayho Abdimuminovna

Andijon davlat Universiteti Fakultetlararo chet tili kafedrası mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12684151>

Annotatsiya. Ushbu maqolada suggestiv direktiv nutqiy aktlarning turlari va ularning turli leksik vositalar orqali ifodalanishi xaqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: direktiv nutqiy akt, suggestive, maslaxat, taklif, ogohlantirish, rag'batlantirish.

Suggestivlar direktiv nutqiy aktlarning shunday turiki, unda asosiy o'rinda so'zlovchi turadi hamda muayyan vaziyat uchun o'zining hayotiy tajribasi yoki bilim saviyasi asosida adresat xatti harakatlarini boshqarishga huquqlidir. So'zlovchining fikriga ko'ra, ish-harakatning bajarilish sababi adresatga foydali bo'lib, uning bajarilishi esa majburiy emasligini anglatadi hamda adresat o'zi uning amalga oshirilish yoki yo'qligi to'g'risida o'zi qaror qabul qiladi. Suggestivlar muloqotning harakatni birgalikda bajarish istagi paydo bo'lganida ikkala suhbatdoshi uchun ham manfaatli bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchilari adresat va adresant hisoblanadi, biroq qaror qabul qiluvchi har doim tinglovchi hisoblanadi. Suggestivlarga: maslahat, taklif va ogohlantirish kiradi.

1. Yuqorida suggestivlarga berilgan tavsifimizdan ko'rish mumkinki, **maslahat nutqiy** akti suggestivlarning o'zagi, uning asosiy turi hisoblanadi.

Masalan.

"Forget it, Harry" said George bracingly. (J.K. Rowling, Harry Potter)

Ingliz tilida *dear, my dear, my dear fellow, my boy, my love* kabi murojaatlarni qo'llash esa direktivlarni yumshatish vazifasini bajaradi. *"Don't worry, mamma **dear**," she said, softly, a peculiar resolve coming into her heart.* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt)

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'ruzachining o'zini bashorat qilingan harakat ijrochilari ro'yxatiga kiritish to'g'ridan to'g'ri bajarilish kerak bo'lgan ish-harakatning salbiy ta'sirini kamaytiradi va uning muloyimlik bilan amalga oshirilishiga erishiladi. 1-shaxs ko'plik imperativ shakllari jumla tiliga imperativ undovni shunday murojaatga aylantiradiki, adresat va adresant o'rtasidagi chegara yo'qoladi:

- *"**Let's** move along a bit," Hermione whispered. "We need to get nearer to Buckbeak!"* (J.K.Rowling, Harry Potter, p.1046)

3 shaxs birlik va ko'plik shakllariga bevosita ruxsat etilishini ta'kidlab o'tish orqali maslahat berish: *"To-night!" he repeated. "This very minute! Let her find a home. She did not want this one. Let her get out now. **We will see** how the world treats her."* (T.Dreiser, Jennie Gerhardt)

Bunda 3-shaxs uchun so'zlovchi allaqachon qaror qabul qilganligini hamda ushbu qarorni yumshoq ohangda aytganligini ko'rishimiz mumkin.

Misol: *"**Let her** try!" said Hermione defiantly.* (J.K.Rowling, Harry Potter)

Nutqiy aktning aynan maslahat akti ekanligini ko'rsatib turuvchi advise / maslahat beraman performativ fe'llari orqali: *I would **advise** you not to shout at the Azkaban guards like that. They won't like it at all.* (J.K.Rowling, Harry Potter)

Har bir maslahat turi o'ziga xos farqlangan xususiyatlarga ega, ammo ularni direktiv nutq aktlarining umumiy propozision mazmuni birlashtiradi. Ushbu turlar orasidagi chegaralar aniq

emas, aksincha xiralashgan, bu esa nutqning kontekstini ma'lum bir turni aniqlash uchun hal qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

2. Taklif nutqiy aktida so'zlovchi va uning suhbatdoshi birgalikdagi harakatga undashni nazarda tutadi va taklif nutqiy aktini bajara turib, adresant nafaqat o'zgalarning xatti-harakatlariga sabab bo'ladi, balki o'zini ham muayyan vazifa bajarishga majburlaydi. Unga ko'ra, xulosa qilish mumkinki, taklif gibrid nutq akti hisoblanib, o'zida ham direktiv, ham komissiv nutq aktlarini mujassamlaydi. Taklifga o'z xizmatlarini taklif etish ham tegishli bo'lib, bunday vaziyatda xatti-harakatning bajaruvchisi muallifning o'zi hisoblanadi.

"Won't you sit down?" They had both been standing. Jennie seated herself, and Mr. O'Brien pulled up a chair near to hers. (T.Dreiser, Jennie Gerhardt)

Masalan: ...Shu munosabat bilan bog'i Navro'ziyda jangovar beklar Murodga chog'ir taklif qildilar. (P.Qodirov, Avlodlar dovoni)

Taklif ma'nosini anglatuvchi direktivlar (muayyan manzilga taklif va xizmatlar taklifi) turli xil to'g'ridan to'g'ri va bilvosita nutq aktlari yordamida ifodalanishi mumkin. Taklif nutqiy akti ham qabul qiluvchining, ham ma'ruzachining manfaatlariga mos keladi.

Odatda, taklif nutqiy akti o'zida nafaqat suggestiv, balki rekvistiv aktini ham mujassamlaydi. Bunda taklifning tinglovchiga, ya'ni taklif etilayotgan shaxsga foydalilik hamda nazarda tutilgan kelgusidagi harakatning amalga oshirilishi majburiyati so'zlovchiga yuklanishi xususiyatiga ko'ra uni suggestivlarga taaluqli deyish mumkin.

3. Ogohlantirish

Rebayn ogohlantirishni muayyan harakat bajarilishining ma'lum bosqichini bosib o'tadigan hamda adresat xulq-atvori jarayonini o'zgartiradigan direktiv talablarga taalluqliligini ta'kidlaydi ¹. **Ogohlantirish** suggestivlarning bir turi bo'lib, xavfdan ogoh etilgandan so'ng adresatning o'z istagiga ko'ra harakatlanmaslikka asoslangan xavfning oldini olish nutqiy harakatidir.

U muayyan pozisiyani (o'quvchi, talaba) yoki vaziyat rolini (yo'lovchi, mijoz) o'z zimmasiga olgan har qanday shaxs deontik ko'rsatmalarda belgilangan me'yorlarga rioya qilishi shart bo'lgan nutqiy akt hisoblanib, odatda, nomaqbul xatti harakatlarning oldini olish yoki klasida ish-harakatni bajaruvchilarga shikast etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ular aksariyat hollarda axloq-odob me'yorlariga asoslangan bo'lib, bunday tartib-intizom qoidalariga amal qilmaslik noma'qul, yoqimsiz va hatto fojeali yakun topishi ham mumkin, deb taxmin qilinadi.

Masalan.

"Anyone messing around my class will leave and not come back. You have been warned." (J.K.Rowling, Harry Potter)

"Be warned, Potter – any more nighttime wanderings and I will personally make sure you are expelled. Good day to you." (J.K. Rowling, Harry Potter)

"I WARNED YOU! I WILL NOT TOLERATE MENTION OF YOUR ABNORMALITY UNDER THIS ROOF!" (Harry Potter, J.K. Rowling)

Ayrim hollarda ogohlantirishga quloq solmaslik nafaqat tinglovchi uchun yomon nixoya bilan tugashi, balki so'zlovchining ham g'azabi, nafratini keltirib chiqarishi mumkin.

¹ Rehbein J. Komplexes Handeln: Elemente zur Handlungstheorie d. Sprache //(No Title). – 1977.

D.A. Skulinskaya bergan ta'rifga ko'ra, ogohlantirish ma'lum bir shaxsga ehtimoliy xavf-xatarning oldini olish maqsadida beriladigan ishora, ko'rsatma, maslahat yoki tahdiddir.

Hafta o'rtasida havo sovib, yomg'ir yog'adi. O'zbekistonda hafta boshida havo iliq bo'lib, harorat +24...+27 darajagacha ko'tariladi. (gazeta.uz, 20.11.2023)

Respublikaning tog'li hududlarida qor ko'chish xavfi e'lon qilindi. Ehtiyot choralarini ko'rishingizni so'raymiz. (Favqulodda vaziyatlar vazirligi ogohlantirishidan, 11. 03. 2024)

4. **Ruhlantirish nutqiy akti**

Ruhlantirish akti suggestiv nutqiy AKTning bir turi bo'lib, u produsient tomonidan resipientni muayyan topshiriqni bajarishi uchun ruhlantirish vazifani o'taydi. Bunda odatda, tinglovchiga nisbatan "biz bu vazifani birga uddalaymiz, sening qo'lingdan keladi" qabilida so'zlovchining kommunikativ niyati etkaziladi. Ruhlantirish orqali adresat unga bildirilgan ishonchni oqlashga, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga shoshadi. Bunday ruhlantirish ko'pincha, bolalar tarbiyasida, ta'limda, sardorlarining o'z jamoasiga so'zlagan nutqida, siyosatchilarning chiqishlarida, yoinki turli diskurslarda uchratish mumkin. Aytaylik, murabbiy tarbiyasi ostidagi bir guruh sportchilarga muhim uchrashuv, bellashuv yoki o'yin oldidan murojaat qilganda: *"Biz, albatta, g'olib bo'lamiz, shunday emasmi?"* yoxud *"Sizlar mening ishonchimni oqlaysizlar, shundaymi?"* "Biz birga raqibimizni mag'lub qilamiz" kabi shiorlar, dalda beruvchi nutqlar so'zlashi mumkin.

Ingliz tilida ruhlantirish suggestivlari, odatda, tasdiq so'roq gaplari vositasida amalga oshiriladi. Agar jumla tarkibida yordamchi fe'llar bo'lsa, ularning bosh gap qismidagi shaklining aksini qo'llash orqali, yordamchi fe'llar mavjud bo'lmagan taqdirda "do"yordamchi fe'lining tegishli shakllarida qo'llanilishi orqali hosil qilinadi.

*"Oh, just open, **can't** you?" He said angrily. "I really need to see him, it's urgent!"* (J.K.Rowling, Harry Potter).

*"You know how many subjects I am taking," said Hermione breathlessly. "Couldn't hold these for me, **could** you?"* (J.K.Rowling, Rarry Potter). Bundan ko'rinib turibdiki, kelasida amalga oshirilishi nazarda tutilgan suggestiv direktivlar o'z suhbatdoshiga tasdiqlatib olish orqali uni ushbu ish-harakatni bajarishga undaydi, bu esa o'z navbatida so'zlovchining ko'zlangan maqsadi uchun qo'l keladi.

Shunday qilib, suggestiv nutqiy aktlar suhbatdoshga bajarilajak ish-harakatni majburlash yo'li bilan emas, maslahat, taklif, ruhlantirish orqali taqdim etiladi. Ogohlantirish suggestiv aktiga kelsak, bunday direktivlar tinglovchining kelajagini ko'zlagan holdagina, nojo'ya oqibatlarining oldini olish maqsadini nazarda tutganligi sababli adresat uchun foydali hisoblanadi. Bunday nutqiy aktlar, odatda, umum qabul qilingan etiket, intizom tartib, qonun-qoidalariga rioya qilish asnosida shakllanadi.

References:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika //Toshkent: Uzme. – 2008. – T. 255
2. Solieva M. Classification of specch acts //Tsentr nauchnix publikasiy (buxdu. uz). – 2022. – T. 18. – №. 18.ratsheniya
3. Razgulyaeva A. V. Funktsionirovanie direktivov v dialogicheskix edinstvax: dis. – M., 2000, 2000.
4. Ramazanova A. N., Aznabaeva L. A. Pobuditelnyy potentsial angliyskix poslovis: dis. – Ufa:

Bashkirskiy Gosudarstvenniy universitet: kafedra Angliyskoy filologii, 2005.

5. Golovin B. N. Osnovi kulturi rechi: Uchebnoe posobie. – Vissh. ShK, 1988.
6. Gorodeskiy B. Yu. K probleme semanticheskoy tipologii. – Izd-vo Mosk. un-ta, 1969.

